



**Jizzax viloyatining
sanoat ishlab chiqarishi
(2020- yil yanvar-avgust)**



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020- yilning yanvar-avgust oylarida viloyat korxonalari tomonidan 3 476,0 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 102,7 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (91,0 %) ni tashkil etdi.



**Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
sanoat ishlab chiqarish**




Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi ko'payishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 1,1 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 34,7 % ga hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda – 8,3 % o'sishi kuzatildi.

Shuningdek, tog'-kon va ochiq konlarni ishlash sanoatning – 52,0 % ga kamayishi kuzatildi.

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2020- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 75,4 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,2 % ini tashkil etdi.



Tumanlar miqyosida, togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi, mlrd. soʻmda

Tumanlar miqyosida olib qaralganda, togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi boʻyicha asosiy ulush Gʻallaorol, Zomin, Forish hamda Sharof Rashidov tumaniga toʻgʻri keladi.





| Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash hajmi, tumanlar kesimida, mln. soʻmda | 2019- yil yanvar-avgust | 2020- yil yanvar-avgust | Ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi*% |
|--|-------------------------|-------------------------|---|
| Gʻallaorol tumani | 7 930,3 | 25661,2 | 241,3 |
| Forish tumani | 10615,7 | 15624,1 | 109,8 |
| Zomin tumani | 27490,6 | 13664,6 | 37,1 |
| Sharof Rashidov tumani | 15125,4 | 12673,8 | 62,5 |
| Jizzax shahri | 4220,7 | 3 352,0 | 50,3 |
| Baxmal tumani | 1 459,0 | 2 878,4 | 147,1 |
| Zafarobod tumani | 1106,6 | 1 354,8 | 77,5 |



Ishlab chiqaradigan sanoat


2020- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3 164,7 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 91,0 % ini tashkil etdi.





**Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi
bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da**


O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 3,1 % ni (2019- yil yanvar-avgust oylarida - 4,7 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 5,1 % (4,9 %), o'rta-quyi texnologiyali – 23,3 % (23,6 %) va quyi texnologiyalisi - 59,8 % (57,2 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 35,9 % (2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 126,6 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 18,3 % (2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 86,6 %), mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi - 8,9 % (2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 82,6 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 2,5 % (2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 89,5 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,9 % (2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 82,8 %) ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati



2020- yilning yanvar-avgust oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 3525,5 ming m² sirti silliqlangan shisha (2019-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 92,7 % ga o'sgan), 43,6 ming tonna bug'doy uni (12,5%), 24,7 ming tonna paxta tolasi (21,3 %), 2,0 ming tonna paxta tviti (lint) (17,5 %), 40,7 ming tonna paxta chigiti mahsulotlari (21,7 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.






Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2019- yil yanvar-avgust | 2020- yil yanvar-avgust | Farqi +/- |
|-----------------------------------|-------------------------|-------------------------|-----------|
| Yumshoq bug'doy va spelta uni, t. | 38779,5 | 43632,0 | 4852,5 |
| Paxta tolasi, t. | 24324,0 | 24755,4 | 431,4 |
| O'simlik yog'i (tozalangan), t. | 7558,0 | 5541,4 | -2016,6 |
| Bir qavatli ip, t | 14264,4 | 15004,2 | 739,8 |
| Trikotaj polotnolar, t | 1801,0 | 1281,0 | -520,0 |
| Paxta linti, t. | 2053,0 | 2023,9 | -29,1 |



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash
va havoni konditsiyalash**



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 201,3 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (5,8 % ini) tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-avgust oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 34,7 % ga oshganligi kuzatildi.






**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni
konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini
tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

| Sanoat mahsulotlari | 2019- yil yanvar-avgust | 2020- yil yanvar-avgust | Farqi +/- |
|---|----------------------------|----------------------------|--------------|
| Elektr energiyasini uzatish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm | 116639,4 | 162598,8 | 45959,4 |
| Boshqa bug' va issiq suv (issiqlik energiyasi), ming gkal | 6,2 | 5,8 | -0,4 |
| Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln.so'm | 42704,6 | 38326,6 | -4378,0 |



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 34,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,0 % ini) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


| Sanoat mahsulotlari | 2019- yil yanvar-avgust | 2020- yil yanvar-avgust | Farqi +/- |
|---|----------------------------|----------------------------|--------------|
| Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln.so'm | 13676,8 | 20972,4 | 7295,6 |
| Kanalizatsiya tizimi bo'yicha xizmatlar, mln.so'm | 27,4 | 24,7 | -2,7 |
| Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm | 11771,3 | 13667,1 | 1895,8 |

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar 39,0 % ga, oshganlik kuzatildi, shuningdek, kanalizatsiya tizimi bo'yicha xizmatlar -19,1 % ga hamda chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar -3,8 % ga pasayish kuzatildi.



Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1528,7 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan -11,2 % ga kamaygan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 44,0 % ni tashkil etdi.



2019- yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 2020- yil yanvar-avgust oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida nooziq-ovqat mahsulotlarning ulushi 65,0 % dan 35,0 % gacha kamayganligi qayd etildi.

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahrida 34,8 % ni shuningdek, Sharof Rashidov tumani 11,6 % ni, Zomin tumani 12,4 % ni, Paxtakor tumani 5,2 % ni hamda, Do'stlik tumani 9,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, viloyatda iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'ati yuqori ko'rsatkich Yangiobod (120,4, %), Paxtakor (127,4 %), Arnasoy (110,2 %) va Zomin (112,9 %) tumanlarida qayd etildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida past ko'rsatkich Do'stlik tumani 76,4 % ni, Sharof Rashidov tumani 83,2 % ni, Mirzacho'l tumani 96,0 % ni, Zarbdor tumani 83,8 % ni tashkil etdi.



**Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
(2020- yilning yanvar-avgust oylarida)

| | Mrd. so'm | Jamiga nisbatan ulushi, % da | 2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, % da |
|------------------------|---------------|------------------------------|---|
| Jizzax viloyati | 1528,7 | 100,0 | 88,8 |
| Jizzax shahar | 532,2 | 34,8 | 78,8 |
| <i>tumanlar:</i> | 0,0 | | |
| Arnasoy | 49,1 | 3,2 | 110,2 |
| Baxmal | 48,4 | 3,2 | 93,5 |
| G'allaorol | 65,0 | 4,3 | 99,0 |
| Sharof Rashidov | 177,4 | 11,6 | 83,2 |
| Do'stlik | 139,5 | 9,1 | 76,4 |
| Zomin | 189,6 | 12,4 | 112,9 |
| Zarbdor | 55,8 | 3,6 | 83,8 |
| Zafarobod | 30,7 | 2,0 | 101,5 |
| Mirzacho'l | 39,9 | 2,6 | 96,0 |
| Paxtakor | 79,2 | 5,2 | 127,4 |
| Forish | 73,7 | 4,8 | 92,1 |
| Yangiobod | 48,2 | 3,2 | 120,4 |

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 25,0 % ni, shuningdek, Do'stlik tumani 17,9 % ni, Zomin tumani 13,6 % ni, Paxtakor tumani 8,5 % ni hamda Zarbdor tumani 6,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahri (143,0 %), Paxtakor tumani (122,0 %) hamda Baxmal tumanida (108,1 %) qayd etildi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng past ko'rsatkich Mirzacho'l tumani 58,4 % ni, Zarbdor tumani 59,2 % ni hamda Sharof Rashidov tumani 74,3 % ni tashkil etdi.



Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2020- yilning yanvar-avgust oylarida)

| | Mlrd. so'm | Jamiga nisbatan ulushi, % da | 2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, % da |
|------------------------|--------------|------------------------------|---|
| Jizzax viloyati | 535,6 | 100,0 | 94,1 |
| Jizzax shahar | 133,7 | 25,0 | 143,0 |
| <i>tumanlar:</i> | | | |
| Arnasoy | 15,6 | 2,9 | 87,8 |
| Baxmal | 27,9 | 5,2 | 108,1 |
| G'allaorol | 20,8 | 3,9 | 83,2 |
| Sharof Rashidov | 20,2 | 3,7 | 74,3 |
| Do'stlik | 95,9 | 17,9 | 85,1 |
| Zomin | 72,7 | 13,6 | 79,0 |
| Zarbdor | 34,2 | 6,4 | 59,2 |
| Zafarobod | 21,7 | 4,0 | 100,7 |
| Mirzacho'l | 10,8 | 2,0 | 58,4 |
| Paxtakor | 45,3 | 8,5 | 122,0 |
| Forish | 22,3 | 4,2 | 89,9 |
| Yangiobod | 14,5 | 2,7 | 95,4 |

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 40,1 % ni, shuningdek Sharof Rashidov tumani 15,8 % ni, Zomin tumani 11,8 % ni, Forish tumani 5,2 % ni, G'allaorol tumani 4,5 % ni hamda Do'stlik tumani 4,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Yangiobod (135,7 %), Zarbdor (247,7 %), Zomin (154,1 %), Arnasoy (125,0 %), Paxtakor (135,4 %) hamda G'allaorol (108,7 %) tumanlarida qayd etildi.

Nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Zarbdor tumani 247,7 % ni hamda Paxtakor tumanida 135,4 % ni tashkil etdi.



Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2020- yilning yanvar-avgust oylarida)

| | Mrd. so'm | Jamiga nisbatan ulushi, % da | 2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, % da |
|------------------------|--------------|------------------------------|---|
| Jizzax viloyati | 993,1 | 100,0 | 86,1 |
| Jizzax shahar | 398,5 | 40,1 | 68,4 |
| <i>tumanlar:</i> | | | |
| Arnasoy | 33,5 | 3,3 | 125,0 |
| Baxmal | 20,5 | 2,1 | 78,9 |
| G'allaorol | 44,3 | 4,5 | 108,7 |
| Sharof Rashidov | 157,2 | 15,8 | 84,5 |
| Do'stlik | 43,6 | 4,4 | 62,4 |
| Zomin | 116,9 | 11,8 | 154,1 |
| Zarbdor | 21,5 | 2,2 | 247,7 |
| Zafarobod | 9,0 | 0,9 | 103,5 |
| Mirzacho'l | 29,1 | 2,9 | 126,3 |
| Paxtakor | 33,9 | 3,4 | 135,4 |
| Forish | 51,4 | 5,2 | 93,2 |
| Yangiobod | 33,7 | 3,4 | 135,7 |



Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 793,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 22,8 % ni tashkil etdi.




**Jizzax viloyatining shahar va tumanlar kesimida
sanoat ishlab chiqarish hajmlari**

| | 2020- yil yanvar-avgust mlrd. soʻm | Fizik hajm indeksi, % da |
|------------------------|---|-------------------------------------|
| Jizzax viloyati | 3 476,0 | 102,7 |
| Jizzax shahar | 1 433,5 | 100,9 |
| <i>tumanlar:</i> | | |
| Arnasoy | 88,5 | 104,2 |
| Baxmal | 50,9 | 100,8 |
| Gʻallaorol | 94,8 | 102,1 |
| Sharof Rashidov | 200,6 | 102,4 |
| Doʻstlik | 594,9 | 115,3 |
| Zomin | 211,1 | 102,6 |
| Zarbdor | 135,0 | 100,3 |
| Zafarobod | 159,3 | 118,9 |
| Mirzachoʻl | 49,8 | 100,7 |
| Paxtakor | 289,4 | 114,5 |
| Forish | 118,0 | 101,7 |
| Yangiobod | 50,2 | 100,7 |
| | | |



Jizzax viloyati shahar va tumanlar kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da


Viloyat sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining oshganini, Zafarobod (2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan 118,9 %), Paxtakor (114,5 %), Do'stlik (115,3 %), Sharof Rashidov (102,4 %), Arnasoy (104,2 %) hamda G'allaorol (102,1 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshganligi bilan izohlashimiz mumkin.



Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Do'stlik (2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan -23,6 %), Sharof Rashidov (-16,8 %), Mirzacho'l (-4,0 %), Zarbdor (-16,2 %), Forish (-7,9 %) tumanlarida hamda Jizzax (-21,2 %) shahrida sezilarli darajada pasaydi.



**Jizzax viloyati jami sanoat
mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da**



Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Jizzax shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 41,2 % i), Do'stlik (17,1 %), Paxtakor (8,3 %), Zomin (6,1 %) hamda Sharof Rashidov (5,8 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Mirzacho'l (1,4 %) hamda Yangiobod (1,4 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Do'stlik (9054,8 ming so'm), Paxtakor (3 879,8 ming so'm), Zafarobod (3186,0 ming so'm) tumanlarida hamda Jizzax shahrida (8040,0 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (2 502,9 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1100,7 ming so'm bo'lgan bo'lsa, Jizzax shahrida 2 984,8 ming so'mni, Do'stlik tumanida 2123,8 ming so'mni, Yangiobod tumanida 1708,6 ming so'mni, Zomin tumanida 1153,7 ming so'mni, Arnasoy tumanida 1067,9 ming so'mni tashkil etdi.




**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**
(2020- yil yanvar-avgust oylarida, ming so'm)

| | Sanoat mahsulotlari | Iste'mol mahsulotlari |
|------------------------|----------------------------|------------------------------|
| Jizzax viloyati | 2 502,9 | 1 100,7 |
| Jizzax shahar | 8040,0 | 2 984,8 |
| <i>tumanlar:</i> | | |
| Arnasoy | 1 924,1 | 1067,9 |
| Baxmal | 325,1 | 309,0 |
| G'allaorol | 550,4 | 377,7 |
| Sharof Rashidov | 904,2 | 799,7 |
| Do'stlik | 9054,8 | 2123,8 |
| Zomin | 1 284,9 | 1153,7 |
| Zarbdor | 1562,6 | 645,4 |
| Zafarobod | 3186,0 | 613,0 |
| Mirzacho'l | 958,7 | 769,2 |
| Paxtakor | 3 879,8 | 1061,7 |
| Forish | 1 273,4 | 795,2 |
| Yangiobod | 1 779,2 | 1 708,6 |
| | | |



**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda
kichik biznesning ulushi**
(2020- yil yanvar-avgust oylarida, % da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1 964,4 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 56,5 % ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Baxmal tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Sharof Rashidov tumanida (100,0 %), Zomin tumanida (100,0 %), Yangiobod (99,8 %), Mirzacho'l (95,5 %), Forish (92,4 %), G'allaorol (80,2 %) tumanlarida kuzatildi.


Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Zafarobod (20,8 %), Paxtakor (40,8 %) va Zarbdor (43,7 %) tumanlarida hamda Jizzax shahrida (46,0 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.




**Jizzax viloyatida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari
(2020- yil 1- sentyabr holatiga ko'ra)**

Bugungi kunda viloyatda 3186 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 027 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 32,2 % i) Jizzax shahriga, 654 tasi (20,5 %) Sharof Rashidov tumaniga, 294 tasi (9,2 %) G'allaorol tumaniga, 259 tasi (8,1 %) Zomin tumaniga, 142 tasi (4,6 %) Forish tumaniga, 131 tasi (4,2 %) Zarbdor tumaniga, 121 tasi (3,8 %) Paxtakor tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda



2020- yil yanvar-avgust oylarida viloyatda 475 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 117 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 24,6 %) Jizzax shahrida, 67 tasi (14,1 %) Sharof Rashidov tumanida, 36 tasi (7,6 %) Zarbdor tumanida, 52 tasi (10,9 %) G'allaorol tumanida, 35 tasi (7,4 %) Zomin tumanida, 27 tasi (5,7 %) Forish tumanida hamda 28 tasi (5,9 %) Do'stlik tumanida tashkil etildi.

**Sanoat statistikasi
bo'limi**

Tel.: (72) 221-51-13